

MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINING ASOSIY OMILI

Isafov Qudratjon Oribjon o`g`li

*Farg`ona politexnika insituti, ICHB fakulteti, menejment yo`nalishi 75-20 M
guruh talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sifat nazoratini amalga oshirish va bu orqali raqobatbardoshligi ta`minlashdan iborat. Shu asosda raqobatchi korxonalaridan o`zib ketish va bozorni egallash mumkinligi haqida fikrlar berilgan. Sifat nazoratining ahamiyatliligi tushuntirib berilgan.*

Kalit so`zlar: *sifat, raqobatbardoshlik, sifat boshqaruvi, ISO standarti.*

Ishlab chiqarish texnologiyalari va tuzilmalari insonlarning ehtiyojlariga proparsional ravishda rivojlanib borar ekan, dunyo maydoni sifatga asosiy urg'uni bera boshladi. Shu o'rinda madaniyat va ta'lim yuksalib borishi bilan iste'molchilarning didi va talabchanligi ham ortib bormoqda.

XX asrning 4-choragida jahon bozorlarida hali ro'y bermagan hodisalar bo'la boshladi. Yaponiya o'zining sifatli tovarlari bilan kurash maydoniga chiqib kela boshladi. Xuddi shu davrda bu boshqa davlatlarga (xususan Amerika va Yevropa davlatlariga) juda katta zarba bo'ldi. Sifat bo'yicha mashhur mutaxassislardan J.Xarrington bu davr haqida shunday yozgan edi: "80-yillarning yirik urushi harbiy harakatlardan emas, balki sanoat urushidan iborat va butun dunyodagi iste'molchilar bu urushning o'ljasi hisoblanadi."

Tovarning raqobatbardoshligi to'grisida quyidagi fikrlarni keltirish lozimdir: "Tovar raqobatbardoshligi-bu uning nisbiy tavsifi bo'lib, ushbu tovarning raqobatchi tovardan, birinchidan, aynan bitta ijtimoiy ehtiyojga mosligi, ikkinchidan esa ushbu ehtiyojlarni qondirish xarajatlari bo'yicha farqlarni aks ettiradi." [1]

Tovarning raqobatbardoshligi-- uning turli xususiyatlarini to'la va mukammal tarzda namoyon qila olish qobilyatlari yig'indisi.

Tovarning raqobatbardoshligini quyidagi uchta tasnifga bo'lish orqali yanada yaqqolroq aks ettirish mumkin:

- a) foydaliligi
- b) iste'molchining ehtiyojlarini ushbu buyum vositasida qondirishda iste'molchining xarajatlari
- c) taklif raqobatbardoshligi (taklif usuli, yetkazib berish, to'lov shartlari va xizmat ko'rsatish)

Mahsulot sifatini boshqarish korxonada keng qamrovli va izchil olib boriladigan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan murrakkab boshqaruv

taktik jarayondir. Shu jihatdan sifatni boshqarish uchun zarur shart-sharoitlar bo'lishi ahamiyatlidir. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- boshqaruv obyekti holati (oldindan rejalashtirilgan maqsadlarga amal qilgan holda amalga oshirilayotganligi);
- boshqaruv obyekti o'zgaruvchanligi va zaruriy rejalardan chetga chiqmaslik;
- qo'llanilayotgan dasturlar va rejalar bo'yicha mahsulot sifatini o'lchov ko'rsatkichlarini mavjudligi va zaruriy texnologiyalar bilan taminlanganligi;
- chetlanishlarning oldini olish maqsadida boshqarilayotgan obyektlar ustidan nazoratning bo'lishi;

Sifatni boshqarish juda murakkab bo'lganligi bois, uni bosqichlarga bo'lib o'rganish qulay va uning har bir sohasini qamrab olish uchun imkoniyat yaratadi. Quyidagilarni uning bosqichlari sifatida qarash mumkin:

1. Sifatni boshqarish bo'yicha texnik shartlarni ishlab chiqish.
2. Tashkiliy masalarni hal qilish va javobgarlikni taqsimlash.
3. Ishlab chiqarishni va jarayonlarni uzluksizligini ta'minlash.
4. Kelgusida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni bartaraf qilish bo'yicha mexanizmlarni ishlab chiqish
5. Sifat tizimini takomillashtirish bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish.

Bu bosqichlarni muvaffaqiyatli bosib o'tish orqali korxonada mukammal sifat tizimini yaratish borasida ilk qadamlar sifatida qarash mumkin.

Shu jumladan, sifatni nazorat qilish va uning tartiblanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsulot sifatini to'liq nazoratdan o'tkazish va mahsulot ishlab chiqarishda yuzaga keladigan barcha nuqsonlar kurib chiqish muhim hisoblanadi.

➤ Namuna olish ishlab chiqarish jarayonining holatini statistik usullar (ishlab chiqarishni nazorat qilish) yoki har bir ishlab chiqarish partiyasi miqdorida olingan ma'lumotlar orqali ko'rsatib beradi. Bu mahsulotning bir qismini nazorat qiishda, uning natijalari butun partiya uchun amal qiladi. Ushbu turdagi profilaktika, bu erda nuqsonlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun butun ishlab chiqarish jarayoni davomida amalga oshiriladi.

➤ Kiruvchi nazorat - ishlab chiqarishga kiradigan xom ashyo va yordamchi materiallarning sifatini tekshirish orqali amalga oshiriladi

➤ O'zaro operatsion nazorati butun texnologik jarayonni qamrab oladi. Ushbu tur ba'zan texnologik yoki joriy deb nomlanadi. Interoperatsion nazoratning maqsadi- texnologik rejimlarga muvofiqligini tekshirishdir.

➤ Chiqarishni (qabul qilishni) nazorat qilish - tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish. Yakuniy tekshiruvning maqsadi tayyor mahsulotlar sifatining

standartlar va spetsifikatsiyalar talablariga muvofiqligini aniqlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni aniqlashdan iborat. Agar barcha shartlar bajarilgan bo'lsa, unda mahsulotlarni etkazib berishga ruxsat beriladi.

Bunda mahsulotni sifatli va nuqsonsiz tayyorlashgacha bo'lgan davrda amal qiladi va pirovard mahsulotni yetkazib berishni nazarda tutadi.

Bugungi kunga kelib sifatni boshqarishning zamonaviy usullaridan qo'llanib kelmoqda. Bulardan eng keng tarqalgani ISO standartlari hisoblanadi. Bularning ichida ISO 9001 tizimi sifatni yaratish, ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash va shu maqsadda qator vositalar va texnikalarni qo'llaydigan standartlar to'plamidir. Bu standartlar to'plami amaliyotga o'zining bir qancha imkoniyatlari bilan kirib kelmoqda. Bu tizimni joriy qilish orqali korxonalar va firmalar o'zining iste'molchilari bilan ishonchni mustahkamlash, xodimlarni zaruriy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, rahbariyat va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, bozorga kirib borishda bir qancha qulayliklarga ega bo'lish, xavflarni kamaytirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, korxonalar mavqeini mustahkamlash kabi bir qancha ustunliklarni taqdim qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan taribga solish to'g'risida"gi qonuni 27.02.2023 y. O'RQ-820-son.
2. P.R.Ismatullayev, B.M.Axmedov, P.M.Mastyakubova, G'.X.Xamroqulov, Sh.A.Turayev "Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish" Darslik. T:TDTU. 2014. 14-15-betlar
3. Toshpo'latov M.M., Sharipov Q.A. Mahsulot sifatini boshqarish (O'quv qo'llanma). –T.: TTPU-«ASR MATDUOT», 2011, -204 b.
4. <https://www.standart.uz> O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi rasmiy sayti.

